



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2022 y. "26" yanvar № 4

**Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan
narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy statistika
organlarining xodimlari uchun qo'llanmaga o'zgartirish kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni
9-moddasiga muvofiq, Davlat statistika qo'mitasi **QAROR QILADI:**

1. Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 31- martdagi 7- sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy statistika organlarining xodimlari uchun qo'llanma"ga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.
2. Mazkur qaror tasdiqlagan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
2022- yil "26" yanvar dagi
4-son qaroriga
ILOVA

Iste'mol bozorida tovarlarning narxlar darajasini aniqlash yuzasidan narxlar kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hududiy statistika organlarining xodimlari uchun qo'llanmaga (keyingi o'rinlarda Qo'llanma) quyidagi tahrirda o'zgartirishlar kiritilsin:

1. Qo'llanmada keltirilgan "dehqon bozorlari" so'zlari "bozorlar" so'zi bilan almashtirilsin;
2. Qo'llanmaning 4-bandi 5, 6, 7- xatboshilarida keltirilgan "blankalari" so'zi "so'rovnomalari" so'zi bilan almashtirilsin;
3. Qo'llanmada keltirilgan "Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi" so'zlari "Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi" so'zlari bilan almashtirilsin;
4. Qo'llanmaning 2-bob, 4-bo'limi chiqarib tashlansin.